

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qo‘lyozma huquqida
UDK: 658.01:330.3:664(575.17)**

XAMRAYEV NODIRBEK RAVSHANOVICH

**OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSIIYA
SALOHIYATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13 – Menejment

**iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan**

DISSERTATSIYA

**Ilmiy rahbar: Saidov Mashal Samadovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor**

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI INVESTITSIYA SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI.....	14
1.1-§. Oziq-ovqat sanoati rivojlanishining nazariy asoslari.....	14
1.2-§. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida investitsion salohiyatini shakllantirishning mazmuni va ahamiyati.....	34
1.3-§. Oziq-ovqat sanoati korxonalari investitsion salohiyatini baholashning uslubiy asoslari.....	49
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	59
II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI INVESTITSIYA SALOHİYATI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	61
2.1-§. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi tarmog'i rivojlanishi va oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishining iqtisodiy holati tahlili.....	61
2.2-§. Oziq-ovqat sanoati korxonalari investitsion salohiyatini tashkil etuvchi ko'rsatkichlar tahlili.....	76
2.3-§. Oziq-ovqat sanoati korxonalari investitsion salohiyatini gorizontal va vertikal tahlil asosida baholash.....	91
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	107
III BOB. OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI INVESTITSIYA SALOHİYATINI BOSHQARISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	109
3.1-§. Oziq-ovqat sanoati korxonalari investitsiya salohiyatini ko'p omilli bog'lanishlar asosida modellashtirish.....	109
3.2-§. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining investitsion salohiyatini boshqarishni rivojlantirish.....	120
3.3-§. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini rivojlantirishning tashkiliy- iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	129
Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	136
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	137
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	142
ILOVALAR.....	157

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida aholi sonining ortib borishi, iqlim o'zgarishi holatlarining yuz berayotganligi, dunyodagi yirik shaharlar ko'lamining kengayishi va ulardagi aholi sonining o'sib borish jarayonlari bugungi kunda oziq-ovqatga bo'lgan talabning ortishiga olib kelmoqda. Bu esa oziq-ovqat sanoati korxonalariga bo'lgan talabning oshishiga va ularning dunyo miqyosidagi talablarga moslashishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur turdagi korxonalar o'sib borayotgan bozor ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqarish hajmini oshirishga, innovatsion texnologiyalarni joriy etishga, ta'minot zanjirlarini optimallashtirishga va yetkazib berish ko'lamini kengaytirishga majburlanmoqda. Ayniqsa, «so'nggi yillarda ro'y berayotgan geosiyosiy vaziyatlar, global pandemiya, iqlim o'zgarishlari va kechayotgan yuqori inflyatsiya hamda ishsizlik darajasining oshishi tufayli hozirda dunyoda 690-780 mln.dan ortiq insonlar ochlik muammosiga duch kelmoqda. Xususan, yuzaga kelgan ochlik muammosining 55 foizi Osiyo, 38 foizi Afrika, 6 foizi Lotin Amerikasi va Karib dengizi hamda qolgan qismi Shimoliy Amerika, Yevropa va Okeaniya mamlakatlari hissasiga to'g'ri keladi»¹. Bundan ko'rinadiki, jahon miqyosida oziq-ovqat sanoati korxonalarini rivojlantirishda investitsiya salohiyatini boshqarish samaradorligini oshirishning ahamiyati ortib bormoqda.

O'zbekistonda ham aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash dolzarb masalalardan biri bo'lib, 2023 yilda respublika bo'yicha sanoat asosida 65174,7 mlrd. so'm oziq-ovqat mahsulotlari va 17968,3 mlrd. so'm ichimliklar ishlab chiqarilgan, shuningdek, 404648,6 mlrd. so'm qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilgan bo'lsa-da, shu davrda 1962,4 mlrd. so'm oziq-ovqat mahsulotlarini import qilinib, 4141,8 mlrd. so'm oziq-ovqat mahsulotlari eksport qilingan². Ushbu raqamlar mamlakatimizda

¹ FAO data. <https://www.fao.org/3/cc8166en/online/cc8166en.html#chapter-31>; FAO. 2023. Oziq-ovqat xavfsizligi ko'rsatkichlari to'plami. In: FAOSTAT. <https://www.fao.org/faostat/en/#data/FS>

¹ <https://www.statista.com/outlook/cmo/food>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari

oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirib, oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qiluvchi yirik eksportyor davlatlar qatoriga qo'shilish orqali oziq-ovqat sanoati tarmog'ini daromadli tarmoqqa aylantirish hamda mamlakat iqtisodiyotiga shu orqali qo'shimcha investitsiya kiritish mumkin.

So'nggi yillarda mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash hajmini oshirish hamda mazkur sohada faoliyat yurituvchi korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari bo'yicha jadal islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-sonli farmoni bilan «O'zbekiston – 2030» strategiyasi qabul qilingan. Unda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, sanoatda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 25 foizdan 32 foizga yetkazish, qayta ishlash sanoatida mehnat unumdorligini 2 barobar oshirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash ko'rsatkichining 25 foizdan yuqori bo'lishini ta'minlash kabi muhim vazifalar belgilab berilgan³. Mazkur vazifalarning muhimligi oziq-ovqat sanoati korxonalarini iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borishni taqozo etadi va shu bilan birga tadqiqot mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2024-yil 16 fevraldagi PF-36-sonli «Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida», 2023 yil 28 dekabrdagi PF-217-sonli «Iste'mol bozorlarida asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining barqarorligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari, 2021 yil 22 dekabrdagi PQ-58-sonli «Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida islohotlarni tadqiq qilish, strategik rejalashtirish hamda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2020 yil 9 sentabrdagi PQ-471-sonli «Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi ««O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risida»gi PF-158-sonli Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

ovqat mahsulotlari bilan to'laqonli ta'minlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida», 2020 yil 18 martdagi PQ-4643-sonli «Agrar va oziq-ovqat sohalarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2019 yil 29 iyuldagi PQ-4406-sonli «Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash sanoatini rivojlantirish hamda oziq-ovqat ta'minoti zanjiri tizimini takomillashtirish borasida xorijiy olimlardan Wedowati E.R., Singgih M.L., Gunarta I.K., Matthew N.O., Sadiku S.M., Tolulope J.A., Clercq M.D., Vats A., Biyel A., Panova A.V., Bozsik N., Cubillos T.J., Stalbek B., Vasa L., Magda R., Sandu I.S., Nechayev V.I., Voiku I.P., Ahmad Zia Wahdat, Jayson L., Sutherland CH., Le Vallee J. C., Charlebois S., Bonetti M., Hadjidimitriou N., Peroni M., Zanolli A., Katajajuuri J.M., Akkerman R., Yasin Li J., Yun-Hwa P., Qilong Zou, Wu K. va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan⁴.

⁴ Wedowati E.R., Singgih M.L., Gunarta I.K. Production system in food industry: a literature study // 6th International Conference on Operations and Supply Chain Management, Bali, 2014. -P.274; Matthew N. O. Sadiku | Sarhan M. Musa | Tolulope J. Ashaolu «Food Industry: An Introduction» Published in International Journal of Trend in Scientific Research and Development (ijtsrd), ISSN: 2456-6470, Volume-3 | Issue-4, June 2019, -P.128-130; M. De Clercq, A. Vats, A. Biel, Agriculture 4.0: The Future of Farming Technology (2018); A.V. Panova, International Research Journal, 7 (97) (2020); Bozsik N, Cubillos T. JP, Stalbek B, Vasa L, Magda R (2022) Food security management in developing countries: Influence of economic factors on their food availability and access. PLoS ONE 17(7): e0271696.; Sandu I.S., Nechaev V.I., Voiku I.P. State support for the digital transformation of agriculture in the region: a methodological approach // Economics of agricultural and processing enterprises - 2019.- No12.- P.66-70.; Ahmad Zia Wahdat, Jayson L. Lusk. The Achilles heel of the U.S. food industries: Exposure to labor and upstream industries in the supply chain // American Journal of Agricultural Economics. Volume 105, Issue 2, March 2023.P.624-643; Sutherland Ch. at al. Consumer insights on Canada's food safety and food risk assessment system // Journal of Agriculture and Food Research Volume 2, December 2020, 100038; Le Vallee J. C., Charlebois S. 2014 World Ranking: Food Safety Performance. - Conference Board of Canada= Le conference board du Canada, 2014.; M. Bonetti, N. Hadjidimitriou, M. Peroni, A. Zanolli. The Food Industry in Italy // National Institute of the Agrarian Economy. -P.269-278.; Katajajuuri J.-M. et al. Food waste in the Finnish food

Shuningdek, mazkur tadqiqot mavzusi bo'yicha MDH mamlakatlari olimlaridan Sardak S.E., Ogdanskiy K.N., Trifonova O.D., Kulev D.X., Dotsenko V.A., Klovov Y.V., Chichikin A.A., Gusarova Y.V., Gnatovskaya Y.S., Belyayev N., Donskova L., Atayev K.B., Rastorguev P.V., Rudnev M.Y., Gorodilin D.Y., Vasileva N.A., Tleuberdinova A.T., Salibekova P.K., Jukova Y.S., Kuzmina A.O., Zhemokleyeva A.S., Orinbekova G.A., Tulegenova J.U., Pyagay A.A., Atirbekov A.SH., Dovidenko V.A., Akimova R.A. va I.Gusakova va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan⁵.

O'zbekistonda ham aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta

chain // Journal of Cleaner Production. Volume 73, 15 June 2014. -Pages 322-329; Akkerman R. et al. Development and application of a decision support tool for reduction of product losses in the food-processing industry // Journal of Cleaner Production. Volume 16, Issue 3, February 2008. -Pages 335-342; Yasin N.H.M. et al. Food waste and food processing waste for biohydrogen production: a review // Journal of Environmental Management. Volume 130, 30 November 2013, Pages 375-385; Jian-rong Li., Yun-Hwa P. Hsieh. Traditional Chinese food technology and cuisine // Asia Pacific J Clin Nutr 2004;13 (2):P.147-155; Qilong Zou. An Analyze of Chinese Online Fresh Food Industry // Journal of Economics, Business and Management, Vol. 10, No. 3, June 2022. -P.185-189; K. Wu et al. Understanding Chinese tourists' food consumption in the United States // Journal of Business Research 69 (2016) 4706-4713.

⁵ Сардак С.Э., Огданский К.Н., Трифонова О.Д. Глобальная и региональная продовольственная безопасность: концепт, факторы, организационно-экономические решения // Економша I Суствство. № 17, 2018. -С.53-54.; Кулев Д.Х., Доценко В.А., Клоков Ю.В. О структуре потребления продуктов питания и жидкостей как компонентов пищи / Международная научно-практическая конференция «Продовольственная безопасность и научное обеспечение развития отечественной индустрии конкурентоспособных пищевых ингредиентов». Сборник материалов, Санкт-Петербург, 2015.; Чичикин А.А. Пищевая промышленность в системе обеспечения продовольственной безопасности. Автореферат Дисс. к.э.н., М.: РАНИЭ. - 2009г.; Гусарова Ю.В. Введение в технологию продуктов питания: учеб. пособие. - Толятти: ТГУ, 2009. -С. 152.; Гнатовская Ю.С. Совершенствование государственного регулирования пищевой промышленности (на примере Хабаровского Края). Автореферат Дисс. к.э.н., Х.: ХГФЭП. - 2009г.-С.6; Belyaev N., Donskova L. Food Sector New Technologies and Innovations: Priorities for Vector Development / SHS Web of Conferences 93, 04017 (2021), -P. 5; Атаев К.Б. Организация коммерческой деятельности предприятий пищевой промышленности. Автореферат дисс. к.э.н., Санкт-Петербургу.: СПУЭИ, 1994г. -С.14; Расторгуев П.В. Особенности формирования систем контроля качества и безопасности продукции АПК в отдельных странах. Экономические вопросы развития сельского хозяйства Беларуси. 2013. 1(41):-С.159-170.; Руднев М.Ю. Организация и управление на предприятиях пищевой и перерабатывающей промышленности. ФГБОУ ВО «Саратовский ГАУ». - Саратов, 2018. -С.70.; Городилин Д.Ю. Стратегия экономического роста пищевой промышленности в условиях развивающегося рынка. Автореферат дисс. к.н.э., Саратов: СГСЭУ, 2005. -С.7; Василева Н.А. Экономические основы регулирования эффективности производства и труда в пищевой промышленности региона (На примере Саратовской области). Дисс. канд. экон. наук. Саратов: РГБ ОД, 2002. -С.169.; Тлеубердинова А.Т., Салибекова П.К. Пищевая промышленность страны как особый фактор продовольственной безопасности // «Турин» университети хабаршысы» гылыми журналы 2020 ж. №4(88). -С.233; Жукова Ю.С. Учет особенностей пищевой промышленности в процессе бизнес-планирования // Вестник Вятского ГАТУ. №2, 2019. -С.4.; Kuzmina A.O., Zhemokleeva A.S. Current state and development trends of the food industry in Russia // Molodoj uchenyj, no. 17 (255), 2020, pp. -С. 149-152; Орынбекова Г.А., Тулегенова Ж.У., Пягай А.А., Атирбеков А.Ш. Факторы, определяющие развитие продовольственного рынка Казахстана. Вестник университета «Туран». 2020;(1):-С. 83-89.; Довыденко В.А. и др. Пищевая промышленность в России: анализ и перспективы развития // Вопросы студенческой науки. Выпуск №12 (40), декабр 2019. -С. 177-181; Акимова Р.А. Пищевая промышленность в России: проблемы и пути совершенствования // «Теория и практика современной науки» №5(83) 2022. -С.29; Гусакова И. Диагностика функционирования агропродовольственной сферы Республики Беларусь с позиции обеспечения продовольственной безопасности // Аграрная экономика. - 2019. - № 6. - С. 18-30.

ishlash sanoati tarmog'ini rivojlantirish, oziq-ovqat mahsulotlari importini qisqartirish va eksportini oshirish masalalari Berkinov B.B., Maxmudov N., Abduganiyev O.A., Abulqosimov X.P., Bekenov S.S., Mamaraximov B.E., Qobilov SH.R., Saidova D.N., Rasulov T.S., Rustamova I.B., Nazarova F., Saidaxmedova N.I., Umarov I.Y., Tolipova B.F., Mamatqulov M.SH. kabi olimlar ilmiy tadqiqot ishlarida tadqiq etilgan⁶.

Ammo, yuqoridagi ilmiy tadqiqot ishlarida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi, uning mustaqilligi, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarmoqlarini yanada rivojlantirish bo'yicha muammolar atroflicha ko'rib chiqilgan. Biroq, aynan oziq-ovqat sanoati korxonalarini rivojlantirishda investitsiya salohiyatini boshqarish alohida tadqiqot obyekti sifatida ko'rib chiqilmagan, shu bois mazkur yo'nalish tadqiqot mavzusi sifatida tanlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oziq-ovqat sanoati korxonalarida investitsiya salohiyatini boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab

⁶ Беркинов Б.Б., Ахмедов У.К. Аҳолини озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган истъеъмол талабларининг таҳлили.; Махмудов Н. (2020). Перспективы развития экспорта пищевой промышленности в Узбекистане. Экономика И Образование, 1(6), 19-23.; Абдуганиев О.А. Минтақанинг озиқ-овқат билан таъминланганлигини баҳолаш усуллари ва мезонлари // «Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар» илмий электрон журнали. №3. Май июн 2018 йил. //www.iqtisodiyot.uz: Абулқосимов Х.П. Давлатнинг иқтисодий хавфсизлиги. Ўқув қўлланма. - Т.: Академија, 2012.; Абулқосимов Х.П., Расулов Т.С. Озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашнинг назарий жиҳатлари ва йўналишлари. Монография. - Т.: «Fan va texnologiya», 2017. –Б.152.; Бекенов С.С. Критерии и оценки продовольственной безопасности // Вестник КРС №2. 2003.; Мамарахимов Б.Э. Ўзбекистонда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш ва саноатини ривожлантириш // «Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар» илмий электрон журнали. №5, сентябр-октябр 2016 йил.; Саидова Д.Н., Рустамова И.Б., Турсунов Ш.А. Аграр сиёсат ва озиқ-овқат хавфсизлиги. Ўқув қўлланма. - Т.: ЎзФА Асосий кутубхонаси босмахонаси нашриёти, 2016. – Б.258.; Сандова Д.Н., Расулова Д.Т. Проблемы обеспечения продовольственной безопасности в Республике Узбекистан // Ўзбекистон аграр фани хабарномаси. - Т., ТошДАУ, 2015. 2-сон. -Б. 91-94.; Назарова Ф. Иқтисодий эркинлаштириш шароитида Ўзбекистон аграр секторини ривожлантириш истикболлари. и.ф.д. илмий даражасини олиш учун дисс. - Т.: -Б. 261.; Мухторов А.Х. ва бошқ. Иқтисодий глобаллашуви шароитида аграр соҳани ривожлантиришнинг назарий асослари. Т.: «Fan va texnologiya», 2016. -Б. 280 .; Саидахмедова Н.И. Ўзбекистонда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашнинг долзарб масалалари // Иқтисод ва молия, 2018, 4. -Б. 13.; Умаров И.Ю. Пути повышения эффективности предпринимательской деятельности в повышении конкурентоспособности предприятий пищевой промышленности // Региональные проблемы преобразования экономики, №1, 2019. -С.30.; Толипова Б.Ф. Озиқ-овқат саноатининг инвестициявий самарадорлигини оширишда рақамли технологияларни жорий этиш ва автоматлаштириш истикболлари // «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2020-yil.

chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oziq-ovqat sanoatini rivojlanishining nazariy asoslarini tadqiq etish;

oziq-ovqat sanoati korxonalarida investitsion salohiyatini boshqarishning mazmuni va ahamiyatini o'rganish;

oziq-ovqat sanoati korxonalari investitsion salohiyatini baholashning uslubiy asoslari yoritish;

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi tarmog'i rivojlanishi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishining iqtisodiy holati tahlilini amalga oshirish;

oziq-ovqat sanoati korxonalari investitsion salohiyatini tashkil etuvchi ko'rsatkichlarni gorizontaal va vertikal tahlil asosida baholash;

oziq-ovqat sanoati korxonalari investitsiya salohiyatini ko'p omilli bog'lanishlar asosida modellastirishni amalga oshirish;

oziq-ovqat sanoati korxonalarining investitsion salohiyatini boshqarish bilan bog'liq muammolarni aniqlash va ularning yechimlarini ko'rsatish;

oziq-ovqat sanoati korxonalarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qashqadaryo viloyatidagi oziq-ovqat sanoati korxonalarining investitsiya salohiyatini tashkil etuvchi iqtisodiy faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmeti oziq-ovqat sanoati korxonalarini rivojlantirishda investitsiya salohiyatini boshqarish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida tizimli yondashuv, mantiqiy fikrlash, ekspert baholash, taqqoslama tahlil, vertikal va gorizontaal tahlil, jadval, statistik kuzatuv, dinamika qatorlari, prognozlash, iqtisodiy-matematik usullar va ekonometrik modellar kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra «korxonaning investitsion salohiyatini boshqarish» tushunchasining iqtisodiy mazmuni korxona iqtisodiy faoliyatini

ilmiy, texnik, sanoat, texnologik, ma'muriy va boshqa sohalarda boshqaruv funksiyalari va tamoyillariga asoslangan holda tashkil etishda korxonaning faoliyat samaradorligi va rivojlanishini belgilovchi muhim omil sifatida tahlil qilinayotgan obyektning amaldagi rivojlanishi bo'yicha tahliliy ko'rsatkichlarni baholash mezonlari tizimi jihatidan takomillashtirilgan;

hududlarda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashdan tayyor iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishgacha qo'shilgan qiymat zanjirini yaratuvchi hududiy oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish klasterini tashkil etish uning tarkibiga ishchi va xodimlar xavfsizligini sug'urtalash tizimini tatbiq etish orqali takomillashtirilgan;

investitsion salohiyatini boshqarishda oziq-ovqat sanoati korxonalarining ishlab chiqarish, moliyaviy, boshqaruv, marketing, mehnat va innovatsion salohiyatlarini integral baholash bo'yicha «juda yuqori» ($1,2 \leq INV_o$), «yuqori» ($1,02 \leq INV_o < 1,2$), «o'rtacha xavfli» ($0,55 \leq INV_o < 1,02$), «xavfli» ($0,3 \leq INV_o < 0,55$) va «yuqori xavfli» ($0 \leq INV_o < 0,3$) koeffitsiyent chegaralari doirasida baholash asoslangan;

Qashqadaryo viloyati oziq-ovqat sanoati korxonalaridagi iqtisodiy jarayonlarning asosiy tendensiyalari hamda investitsion salohiyatini boshqarishning samarali vositalariga asoslangan holda 2028-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oziq-ovqat sanoati korxonlari investitsion salohiyatini tashkil etuvchi omillarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, mazkur omillarning o'zaro bog'liqligini ifodalovchi muallif talqini ishlab chiqilgan;

mamlakat hududlarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish klasterini tashkil etish asosida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashdan tayyor iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishgacha qo'shilgan qiymat zanjirini yaratuvchi oziq-ovqat sanoati korxonlari birlashmalarini tashkil etish mexanizmi ishlab chiqilgan;

oziq-ovqat sanoati korxonlari investitsion salohiyatini tashkil etuvchi ko'rsatkichlar tizimi, investitsion salohiyatini baholashning mezon va usullari ishlab chiqilgan;

oziq-ovqat sanoati korxonlari investitsion salohiyatini gorizonta va vertikal tahlil asosida baholash orqali ularni oshirish yo'nalishlari ishlab chiqilgan;

oziq-ovqat sanoati korxonalarini boshqarishda investitsion salohiyatini oshirish bilan bog'liq muammolarning yechimlari bo'yicha ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari va xulosalarining ishonchliligi tadqiqotchi tomonidan dissertatsiya ishiga doir xorijiy va mahalliy olimlar olib borgan ilmiy-nazariy, metodologik tadqiqotlari asosida tayyorlanganligi hamda foydalanilgan ma'lumotlar ishonchli rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining ma'lumotlari, shuningdek, boshqa amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oziq-ovqat sanoati korxonalarini boshqarishda investitsion salohiyatini oshirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy asoslari va oziq-ovqat mahsulotlari sanoatini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan samarali tashkil etishda hamda ushbu tarmoq bo'yicha kelgusidagi tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni oziq-ovqat sanoati korxonalarini boshqarishni takomillashtirish, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari sanoatining samaradorligini yanada oshirish, uni tashkiliy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishning innovatsion va ilmiy metodologik yondoshuvlari bilan bog'liq muammolarning ilmiy jihatdan yechimlari hamda oziq-ovqat sanoati korxonalarini rivojlantirish bo'yicha istiqbolli strategiyalarni ishlab chiqishda muayyan darajada xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini boshqarishda investitsion salohiyatini oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra «korxonaning investitsion salohiyatini boshqarish» tushunchasining iqtisodiy mazmunini korxona iqtisodiy faoliyatini ilmiy, texnik, sanoat, texnologik, ma'muriy va boshqa sohalarda boshqaruv funksiyalari va tamoyillariga asoslangan holda tashkil etishda korxonaning faoliyat samaradorligi va rivojlanishini belgilovchi muhim omil sifatida tahlil qilinayotgan obyektning amaldagi rivojlanishi bo'yicha tahliliy ko'rsatkichlarni baholash mezonlari tizimi jihatidan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy ishlanmalar bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi faoliyatiga qabul qilingan (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024- yil 12-dekabrdagi 03-14-01543-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotda joriy etilishi natijasida korxonaning faoliyat samaradorligi va rivojlanishini belgilovchi muhim omil sifatida tahlil qilinayotgan obyektning amaldagi rivojlanishi bo'yicha tahliliy ko'rsatkichlarni baholash mezonlari tizimi jihatidan takomillashtirilgan «korxonaning investitsion salohiyatini boshqarish» tushunchasi bo'yicha nazariy ta'rif va tushunchalarning shakllanishiga imkon yaratilgan;

hududlarda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashdan tayyor iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishgacha qo'shilgan qiymat zanjirini yaratuvchi hududiy oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish klasterini tashkil etish uning tarkibiga ishchi va xodimlar xavfsizligini sug'urtalash tizimini tatbiq etish orqali takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024-yil 12-dekabrdagi 03-14-01543-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotda joriy etilishi natijasida oziq-ovqat sanoati korxonalari investitsion salohiyati holati va resurslar qo'shimcha o'sish sur'atining iqtisodiy samaradorligini baholash natijalari aniqlik darajasining 1,4 baravarga oshishiga erishilgan;

investitsion salohiyatni boshqarishda oziq-ovqat sanoati korxonalarining ishlab

chiqarish, moliyaviy, boshqaruv, marketing, mehnat va innovatsion salohiyatlarini integral baholash bo'yicha «juda yuqori» ($1,2 \leq INV_o$), «yuqori» ($1,02 \leq INV_o < 1,2$), «o'rtacha xavfli» ($0,55 \leq INV_o < 1,02$), «xavfli» ($0,3 \leq INV_o < 0,55$) va «yuqori xavfli» ($0 \leq INV_o < 0,3$) koeffitsiyent chegaralari doirasida baholash taklifi O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024-yil 12-dekabrdagi 03-14-01543-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Qashqadaryo viloyati oziq-ovqat sanoati uyushmasi hududiy boshqarmasi tomonidan oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatiga joriy etilgan va oziq-ovqat sanoati korxonalari investitsion salohiyatini samarali boshqarish orqali qo'shilgan qiymat zanjirida sof foydaning 12,4 foizga oshishiga erishilgan;

Qashqadaryo viloyati oziq-ovqat sanoati korxonalaridagi iqtisodiy jarayonlarning asosiy tendensiyalari hamda investitsion salohiyatini boshqarishning samarali vositalariga asoslangan holda 2028-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024-yil 12-dekabrdagi 03-14-01543-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Qashqadaryo viloyatidagi «Aziya golden oyl» MCHJ va «Murodov Murodulla Ramazonovich» XKning investitsion samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarning uzoq muddatli istiqboldagi asosiy faoliyat parametrlari bilan muvofiqligini ta'minlash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, shu jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, shu jumladan, 6 ta ilmiy maqola, shundan 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr qilingan, 4 ta ilmiy ish O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy

nashrlarda e'lon qilingan.

Tadqiqot ishining tuzilishi. Tadqiqot ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, 142 betni tashkil etdi.